4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TA'LIM - TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

**Qayumova Madina Akbarjon qizi**
**Matlubaxon Abdujabborovna Jo'rayeva qizi**
*Farg'ona tumani, 32-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida ta'lim-tarbiyani shakllantirish haqida yozilgan. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyani muhimligi va dolzarb masalalari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *maktab, ta'lim-tarbiyalash, yosh avlod, innovatsion metodlar, pedagogik omil.*

Darhaqiqat, bugungi kunda har bir yosh avlodni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan keng dunyoqarashli, bilimli, istedodli har tamonlama yetuk o'z vataniga sadoqatli farzandlar qilib tarbiyalash va ularni ma'lum bir sohadagi kasbga o'qitish eng ustuvor va asosiy masalalardan biri bo'lib sanaladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi yoshlar ham xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning yetakchi yoshlari qatorida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bularning barchasi yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborning yaqqol dalilidir.

Yosh avlodni tarbiyalashda hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi tutgan o'rni muhm ahamiyat kasb etmoqda. Axloqiy sifat va insoniy fazilatlarni dastlab bola o'z oilasidan tarbiya oladi. Tartibli, intizomli, odob-ahloqli bolani ta'lim olishida hech qanday to'siqlar bo'lmaydi. Bolaga yoshligidan o'z ishiga nisbatdan mas'uliyatlilik hissini shakllantirib borish bugungi kun talabidir.

Bolani har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakillanishida ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi va murabbiylarning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bolaning maktabda olgan bilimi uning keyingi hayotini belgilashida muhim omil hisoblanadi.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'zi o'quvchilarga o'rnak va namuna bo'la olishi lozim. Bunda o'qituvchi o'z kasbining yetuk bilimdoni bo'lishi bilan birgalikda o'zida pedagoglik sifatlarini jamlagan bo'lishi lozim.

To'g'ri tashkil qilingan dars jarayoni ta'lim-tarbiyada samaradorlikka erishishga asos bo'ladi. Dars jarayonida turli xil metod, didaktik o'yin va innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda tashkil qilinsa o'quvchining darsga bo'lgan qiziquvchanligi yanada oshadi. Agarda dars zerikarli bo'lganda o'quvchida loqaytsizlik, o'z ishiga nisbattan mas'uliyatsizlik, beparvolik kabi salbiy odatlarni keltirib chiqaradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda o'quvchilarda hisob-kitob ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish

lozim.O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham o'rni beqiyosdir,ko'plab ilmiy mulohazalar orqali sifatli ta'lim berish o'qituvchining muhim vazifasidir.Kelajakda o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim.

Boshlang'ich sinf savodxonlik darsida zamonaviy metodlarning o'rni haqida ma'lumot beradigan bo'lsam didaktik darslar tashkil etib, uning turlarini rivojlantirishimiz darkor.Biz ta'lim tizimida adashmasligimiz kerak.ularga to'g'ri tarbiyani berish bilan birga barkamol shaxsni yuksaltirish ishlarini amalga oshirishimiz kerak.Ta'lim bor joyda sifat yaxshi natija samarali,qiziqarli va ishonchli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida oila o'rni kitobi
3. Metodik qo'llanma boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun